

TIL SIYOSATI

Maktab maqsadi

Invento Ozbek Xalqaro maktabi har bir bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirish bilan bir qatorda o'zining noyobligi va intilishlarini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlaydi. Invento ta'limi o`quvchilarning yaqin muhitini chuqurroq va mazmunli tushuntirish orqali sog'lom munosabatlarni qurish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O`quvchi - diqqat markazi hisobblangan, puxta tashkil etilgan ko'p tilli dastur orqali, ular global fikr qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari maqsadida, biz ularda mustahkam bilim bazasini, doimiy ta`lim olish va o'z-o'zini rivojlantirish istagini shakllantirishga xizmat qilamiz.

Asos

Xalqaro bakalavr (IB) nomzodlik maktabi sifatida, Invento O'zbek Xalqaro Maktabi tillarni o'rganish - boshqa odamlar va madaniyatlarni hamda o'zimizning tillarni tushunish uchun kalit ekanligini tan oladi. Biz o'quv dasturimizni amalga oshirish uchun ingliz tilini ta`lim tili sifatida tanladik. Maktab faoliyatining joriy bosqichida, ya`ni boshlang'ich davrida madaniy va ijtimoiy istiqbollar nuqtai nazaridan asosiy kommunikatsiya o'zbek va rus tillarida o'tkazilmoqda, chunki ushbu tillardan o`quvchilar o'zaro muloqot qilishda foydalanishadi. Ozbek Xalqaro maktabi sifatida biz ingliz, o'zbek va rus tillarini o`quvchilarning shu tillarni bilish darajasiga tayangan holda taklif etamiz. Shuningdek, biz til o'rganish ko'nikmalarini har doim va hamma joyda rivojlantirishga harakat_ qilamiz, shuning uchun barcha o'qituvchilar til o'qituvchilari ekanligini ta'kidlaymiz.

Biz kimmiz

A. O`quvchilar, o`qituvchilar va xodimlarning til profillari

O'quvchilarimizning ko`p qismi rus tilida so'zlashuvchilar, qolgan qismi esa o'zbek tilida so'zlashuvchilardan iborat. Bir nechta shu ikki tilda ham ravon gapiradilar. Maktabimizning yuqori sinflarida avval ta`lim ingliz tilida olib borilgan maktablarda o`qigan o'quvchilarimiz bor.

Bizning o'qituvchilarimiz va xodimlarimiz xorijlik va mahalliy o'qituvchilardan tashkil topgan. Xorijlik o'qituvchilar turli mamlakatlardan kelgan bo`lib, ingliz tilida ona tili sifatida yoki qo'shimcha til o'rganuvchilar sifatida ravon so'zlashadi. Garchi mahalliy o'qituvchilar va xodimlar ichida

O'zbekistonlik o`qituvchilar bo'lsalar ham, ba'zilari chet elda yashaganlar va boshqa tillarda so`zlasha oladilar. Xodimlarimizning asosiy qismi ingliz tilida ravon so'zlashadilar. Shuningdek, ingliz tilini o'rta darajada biladigan hamda ingliz tili ko`nikmalariga ega bo`lmagan xodimlar ham bor. Ingliz, rus va o'zbek tillari maktabning ishchi tillari bo`lib, boshqaruv, ma'muriyat va hamkorlikdagi rejalashtirish, o'qitish, baholash, kasbiy rivojlanish va maktabdan keyingi ishlar uchun foydalaniladi. Bir necha tilni bilgan muktab o'qituvchilarini va boshqa xodimlari xorijiy va mahalliy mutaxassislarning birlashtirishini tashkil etishda ko'maklashadilar.

B. O'quvchilarga qo'yiladigan til talabları

Ko'p tillilik - Xalqaro ta'lifning muhim elementi sifatida tan olingan va qadrlanadi. Tillarni o'rganish madaniyatlarini tushunishga xizmat qiladi va muhim global vazifalar va masalalarni har tomonlama hal etishda ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, bu o'quvchilarga o'z ona tilini tushunishga yordam beradi.

Invento'dagi barcha talabalar uch tilni: ingliz, rus va o'zbek tillarini o'rganadilar. Ingliz tili mактабда asosiy ta'lim tili hisoblanadi. Biroq, o'quvchilar til ehtiyojlariga qarab ushbu uchta tilni o'rganadilar. Rus/o'zbek tili ona tili sifatida, shuningdek, rus/o'zbek tillari qo'shimcha tillar sifatida ham o'qitiladi. Maktab O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bolalarini o'zbek va rus tillarini o'rganish bo'yicha akademik soatlarning minimal belgilangan sonini ta'minlash bo'yicha barcha davlat talablarini bajarmoqda.

Ota-onalar mahalliy talablarga muvofiq O'zbekistonda qabul qilingan rasmiy tillarni bilish darajasini aniqlash uchun mактабга kirishda Til ko'nikmalar bo'yicha so'rovnomani to'ldiradilar.

C. O'quvchilarning til organishlarida ota-onalarning ishtiroki

Ota-onalar bolalarning tillarni o'rgatishdagi asosiy sheriklari bo'lib, bolalarga ularning til taraqqiyotida resurslar taqdim etishadi va qo'llab-quvvatlashadi. Ota-onalar quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirishda o'qituvchilar bilan hamkorlik qilishlari mumkin:

- *Ingliz tili bilan bir qatorda o'z ona tilini o'rgatish;*
- *O'qish ko'nikmalarini rivojlantirish - o'z ona tilida bolalariga muntazam ravishda kitob o'qish orqali madaniyatlar bilan muhim hissiy va ijtimoiy bog'liqlikni saqlab qolish va bu orqali ularga qo'shimcha tillarni o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.*

Inventoda tillar

A. Maktab miqyosida ta'lim jarayoni va ta'lim berish

Inventoda ingliz tili - o'qitishning asosiy tili hisoblanadi. 3 - 4 yoshgacha bo'lgan va ulardan kattalarga barcha darslar ingliz tilida olib boriladi, rus va o'zbek tillari (shuningdek, bolalar bog'chasidagi musiqa darsi) bundan mustasno.

O'qitish tili - ingliz tili ekanligini hisobga olgan holda, barcha xodimlar va o'quvchilar ingliz tilidan foydalananadilar, ammo bir nechta tilni bilgan assistentlar bolalarga tushunishda yordam berib, differentsial ta'lim va o'qitishni qo'llab-quvvatlashda asosiy o'rinni egallashadi. Kichik guruhlardagi muhokama va boshqa mashg'ulotlar davomida o'quvchilar kontseptual tushunchalarini tushunishlari va o'zaro hamkorlik uchun o'zlariga qulay tilni tanlashlari mumkin.

Barcha o'qituvchilar til o'qituvchilari bo'lib, o'quvchilar o'rtasida akademik ingliz tili ko'nikmalar o'quv dasturi davomida rivojlantiriladi. Sinf o'qituvchilari barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda tarkib, mahsulot, jarayon yoki o'quv muhitini farqlashning individuallashtirilgan usullarini ishlab chiqadilar. Puxta rejalashtirish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga Yaqin taraqqiyot zonasida o'z til ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladilar.

Ingliz tilida so'zlashmaydiganlar tomonidan taqdim etiladigan darsdan keyingi to'garaklar faoliyati ingliz, rus yoki o'zbek tillarida olib boriladi. To'garaklar dasturimizning muhim qismi bo'lib, o'quvchilarimizning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, fakultativ mashg'ulotlar til ko'nikmalarini o'quv dasturidan tashqari oshirish imkoniyatidir.

IB Dasturi standartlari va amaliyoti:

Standart A6 - Maktab ochiq muloqot va hurmat asosidagi faoliyatni yo'lga qo'yadi.

Biz o'qitish va rivojlantirish jarayonini qo'llab-quvvatlash maqsadida o'quvchilarga o'zlariga qulay tilda yoki boshqa tilda o'z fikrlarini ifodalashga chorlaymiz.

Standart B1.5.a - Maktab IB talablariga mos til siyosatini ishlab chiqdi va uni amalga oshiradi.

Biz maktabda til ko'nikmalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida matabning til siyosatini doimiy ravishda mustahkamlaymiz; shuningdek, qo'llab-quvvatlovchi boshqa hujjatlar bilan bir qatorda amalga oshiramiz (masalan, IB tilining ko'lami va ketma-ketligi, til siyosatini ishlab chiqish).

Standart C1.8 - Hamkorlikdagi rejalashtirish va maktab faoliyatini aks ettirishda, o'quvchilarning til rivojlanishi uchun barcha o'qituvchilar mas'ul ekanligini ta'kidlanadi.

Standart C3.8 - O'qitish va o'rganishda ham, o'quvchilarning til rivojlanishi uchun barcha o'qituvchilar mas'ul ekanligini ta'kidanadi.

Barchamiz til o'qituvchisi ekanligimizni e'tirof etamiz va o'quvchilarning til ko'nikmalari rivojlanishida faol ishtirok etamiz.

Biz o'quvchilarga barcha fanlar bo'yicha til o'rganish orqali o'z ko'nikma va imkoniyatlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratib beramiz.

Biz darslarda va darsdan tashqari faoliyatda ham til o'rganish va uni mukammal egallash jarayonini qo'llab-quvvatlaymiz.

Standart C3.1.b - Sinf rahbarlari kamida asosiy ta'lim tilini, matematika, ijtimoiy va aniq ilmlarni o'qitishi, PYP modelining transdissiplinarlik tamoyilini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashi shart.

Standart C3.7 - Ta'lim va o'qitish o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqishi kerak, jumladan, jumladan ona tilidan tashqari boshqa til (lar)ni o'rgatish.

Sinfda fanlarni o'qitish va o'zlashtirishda o'quvchilarning til ehtiyojlarini inobatga olishni ta'minlaymiz.

Biz turli xil qo'llab-quvvatlash materiallarini (masalan, lug'atlar, elektron tarjimon,) bilan ta'minlash orqali o'z ona tilidan boshqa tilni o'rganayotgan o'quvchilarga yordam beramiz.

B. PYP- Boshlang'ich ta`lim dasturi

Milliy o'zbek me'yorlariga muvofiq, mактабгача та'лим мувассасасида керакли lug'атни ishlab chiqish uchun, o`quvchilarni qo'llab-quvvatlashni ta'minlash маqsадида bolalar bilan professional nutq mutaxasisi ishlaydi, bu esa o'z navbatida bolaning o'ziga bol'gan ishonchini va og'zaki muloqotini oshiradi.

PYP-da til o'rganishning maqsadi transdissiplinariya tabiatiga e'tibor qaratib, ushbu dasturga asoslangan, haqiqiy til o'rganishni rag'batlantirishdir. Invento O'zbek Xalqaro maktabida ushbu maqsadda tilni o'qitish va o'rganishni ushbu dasturiga kiritish, lingvistik makro-ko'nikmalarini o'zaro bog'liq holda rivojlantirish imkonini berish orqali erishiladi. Ushbu ko'nikmalar tilga sho'ng`ish amaliyoti orqali o'rnatiladi.

Birgalikda rejalashtirish va tahlil qilish turli fanlar va bo'limlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish uchun PYP o'qituvchilar tarkibi ish jadvalining ajralmas qismi hisoblanadi. O'quvchilar uchun barcha o'zlashtirish mezonlari ularning yakka tartibidagi ehtiyojlaridan kelib chiqib to'g'ri tanlanganligiga ishonch hosil qilish uchun, PYP barcha o'qituvchilari "IB metodikasi bo'yicha tilni qamrab olish va o'zlashtirish dasturi" qo'llanmasini yiliga ikki marta qayta ko'rib chiqadilar.

PYP dasturi bo'yicha o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish bosqichlari o'quvchining yoshi bilan emas, haqiqiy til ko'nikmalari asosida shakllanadi. Shu tariqa differentials yondashuv amalga oshiriladi va har bir o'quvchining individual aqliy rivojlanishini hurmat qilish imkonini beradi.

C. Umumiy o'rta ta`lim dasturi

MYP - o'rta ta`lim maktabi dasturida ingliz tilini o'rganish – o'quvchilar tomonidan ingliz, rus va o'zbek tili bo'yicha lingvistik ko'nikmalarga ega bo'lish uchun MYP doirasida tashkil etilgan alohida yo'nalishdir. Ushbu kurs jadvalga ingliz tili saboqlari va adabiyot saboqlari ko'rinishida kiritilgan. Shu tariqa, ingliz tilini bilish darajasi rivojlanishiga ko'ra, to'liq o'tish ta'minlanadi. Til ko'nikmalarini rivojlantirishni optimallashtirish uchun haftadagi darslar soni o'zgarmay qolmoqda.

Mahalliy milliy ta`lim talablariga muvofiq, mактабда o'zbek va rus tillari til tashuvchilari uchun ona tili va adabiyot darslari ko'rinishida, shuningdek, ikkinchi til sifatida qo'shimcha til yordamiga muhtoj o'quvchilar yoki ushbu tildan foydalanuvchilar uchun o'qitiladi. Bu yo'nalishlar MYP dasturida alohida fan sifatida o'qitiladi va biz Invento O'zbek Xalqaro Maktabida, O'zbek tili va adabiyoti kurslarini MYP dasturida ilk bor ishlab chiqqanimiz va amalga oshirganimiz bilan faxrlanamiz.

D. Inklyuziv yondashuv

1-sinfdan 5-sinfgacha o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishda qo'shimcha yordam taqdim etiladi. Ingliz tili o'qituvchisi malakasiga ega bo'lgan o'qituvchi, zarur bo'lsa, saboqlarni o'tkazishda yordam beradi, kichik guruuhlar bilan ishlaydi va o'qituvchilar tarkibi bilan jamoaviy rejalashtirishda ishtirok etadi, har bir o'quvchining yakka tartibdagi ehtiyojlarini qoplash uchun maxsus materiallar ishlab chiqadi. Yosh izlanuvchilarning hissiy rivojlanishi uchun juda muhim bo'lgan ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va jamoa birdamligini oshirish uchun barcha o'quvchilarni bir vaqtning o'zida darsga jalb etish bizning maqsadimizdir.

Yosh bilim oluvchilarning boshqa tilni egallashlari uchun to'rt yilgacha vaqt kerak bo'ladi. Ushbu ma'lumot ota-onalarga o'quvchilarni Invento maktabiga qabul qilayotganda, ular har bir bola o'z qabul qilishiga qarab, o'z sur'atida rivojlanib borishini tushunishlari lozimligi tushuntiriladi. Invento O'zbek Xalqaro Maktabiga qabul qilish uchun 9-sinfgacha ingliz tilini bilishi majburiy shartlardan biri emas. Umumiy o'rta ta'limi oxirida o'quv samaradorligini maksimal darajada oshirish uchun 9-sinf o'quv yilining boshlanishiga qadar, o'quvchilarning ingliz tili darajasi kamida orta darajada bo'lishi muhimdir.

Biz o'quvchilarimiz tomonidan ingliz tilini o'rganish yutuqlarini puxta nazorat qilamiz, bu haqda ota-onalarimizga muntazam asosda xabar beramiz. Olingen ma'lumotlardan kelib chiqib, ularga tashqaridan yordam muhim yoki muhim emasligi haqida xulosa qilish mumkin.

E. O'zbek madaniyati

Maktabimiz barcha fanlar bo'yicha to'liq o'zbek milliy o'quv dasturini amalga oshiradi. Biologiya, etika, geografiya, tarix kabi ayrim fanlarda O'zbekistonga xos bo'lgan bo'limlar mayjud. O'zbek milliy o'quv dasturi bo'yicha mutaxassis xodimimiz milliy dasturni ingliz tilida mukammal o'qitish uchun butun ta'lim jamoasiga yetarli darajada tushuntirishlar olib boradi va resurslar taqdim etilishini ta'minlaydi. O'zbekiston haqida xalqaro o'qituvchilar tajribasi orqali o'rganish bizning o'quvchilarimiz uchun xalqaro ongning yana bir shaklidir.

Mezbon-o'l kamiz tillari va madaniyatini nishonlash va o'rganish maqsadida yil bo'yи maxsus tadbirlar o'tkaziladi. Tadbirlar taqvimi barcha milliy bayramlarni o'z ichiga oladi.

Ma'sul shaxslar: SLT (Karolin Fogiel, Ranjana Manuel,
Andrea Lilieth Usher, Rebecca Painter)

Sana: Hujjat 2021-yilning mart oyida ishlab chiqilgan,
2021-yilning avgust hamda 2022-yilning avgust oyida qayta ko'rib chiqilgan

Ko'rib chiqish sanasi:
2023-yilning avgust oyi

